

№427, 25-noyabr, 2021 y.

**COVID  
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 24-noyabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	259 057 361	(+ 584 720)
Sog'ayganlar soni	-	234 349 463	(+ 457 323)
Vafot etganlar soni	-	5 183 577	(+ 8 417)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	48 865 893	(+ 106 649)
	Hindiston	-	34 535 763	(+ 9 283)
	Braziliya	-	22 038 731	(+ 18 861)
	Buyuk Britaniya	-	9 931 167	(+ 42 070)
	Rossiya	-	9 400 835	(+ 33 996)
	Turkiya	-	8 624 580	(+ 28 170)
	Fransiya	-	7 450 691	(+ 30 454)
	Eron	-	6 088 009	(+ 5 144)
	Argentina	-	5 472 949	(+ 54 268)
	O'zbekiston	-	191 956	(+ 206)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



# COVID-19 ga qarshi hujayra immuniteti vaksinasi birinchi bosqichdan o'tdi

Nemis olimlari COVID-19 ga qarshi uzoq muddatli T-hujayra immunitetini yaratishga qaratilgan peptid vaksinasining odamlarda muvaffaqiyatli o'tkazilgan klinik sinovlarining birinchi bosqichi yakunlangani haqida e'lon qildi. Bu haqda Nature [2] jurnalida chop etildi.

Tadqiqot Germaniyaning Tyubingen universiteti klinikasida o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, barcha 36 ishtirokchida yangi CoVac-1 vaksinasining bir dozasi koronavirus infeksiyasiga qaraganda kuchliroq T-hujayra reaksiyasini keltirib chiqardi va bu - emlashdan keyingi butun uch oy davomida saqlanib qoldi.

T-hujayra immuniteti organizmning patogenlarga qarshi birinchi himoya chizig'idir.

T hujayralari infeksiyalangan hujayralarga hujum qiladi va himoya antitanalarini ishlab chiqaradigan B hujayralariga ma'lumot uzatadi. T-hujayralarining yaxshi immuniteti, ayniqsa, saraton kasalligi yoki immunitet tanqisligi bo'lgan bemorlar kabi B hujayralar

i etishmovchiligi bo'lgan odamlar uchun muhimdir.




CoVac-1 vaksinasi bir dozada COVID-19 ga qarshi uzoq muddatli hujayra immunitetini yaratishga qaratilgan, bu tabiiy infeksiyadan olingan T-hujayra javobiga o'xshaydi. Vaksina SARS-CoV-2 virusi oqsillari asosida ishlab chiqilgan. Klinik sinovlarning birinchi bosqichida u xavfsiz va samarali ekanligi isbotlangan. Bir martalik dozadan so'ng, 18 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan barcha ishtirokchilar tadqiqotning uch oyi davomida saqlanib qolgan koronavirusga xos T-hujayra javobiga ega bo'lishdi. Hech qanday nojo'ya ta'sirlar aniqlanmadi.

Vaksinadan kelib chiqqan T-hujayra reaksiyasining kuchi tabiiy infeksiyadan yuqori edi. Bundan tashqari, SARS-CoV-2 virusining barcha to'rtta mavjud variantiga - alfa, beta, gamma va delta ga nisbatan o'ziga xos javoblarni taqqoslash vaksinadan kelib chiqqan T-hujayra reaksiyasi koronavirus variantidan mustaqil ekanligini ko'rsatdi.

Mualliflar tadqiqot natijalarini butunlay ijobiy deb baholaydilar va ular yaqin kelajakda boshlanadigan klinik sinovlarning ikkinchi bosqichida tasdiqlanishiga umid qiladilar [3]. Shuningdek, olimlar ishlab chiqilgan vaksina virusning barcha mavjud o'zgarishlariga qarshi samarali ekanligi isbotlanganligini ta'kidlamoqda [4].





## Tayvanlik olimlar COVID-19 nazal vaksinasini ishlab chiqdilar

Tayvan Milliy Universiteti (NTU) tomonidan ishlab chiqilgan yangi anti-COVID-19 nazal vaksinasi o'z samaradorligini ko'rsatdi va 2022-yilning birinchi yarmida insonlarda sinovdan o'tkazilishi kutilmoqda [5].

Sprey vakcina yuqori nafas yo'llarida ko'p miqdorda A sinfidagi immunoglobulinlarni ishlab chiqarish afzalligibilan ajralib turadi. An'anaviy vakcina G sinf immunoglobulinlarini faqat pastki nafas yo'llarida hosil bo'ladi, shu sababli ham emlangan fuqaro kasallik ostida bo'lib qoladi. Sprey vakcina esa infeksiyalar sonini kamaytirishi mumkin.



Tayvan davlat universiteti kasalxonasining pediatriya bo'limi mudiri Xuan Li-minning so'zlariga ko'ra, koronavirus infeksiyasi boshqalardan kasallikning har qanday kursida yuqori nafas yo'llarida virus miqdori yuqori bo'lishi bilan farq qiladi. Shuning uchun infeksiyani oldini olish juda qiyin. Agar yuqori nafas yo'llarida yetarli darajada A sinfidagi immunoglobulinlar ishlab chiqarilsa, nazariy jihatdan infeksiyani oldini oladi deyish mumkin, ammo faqat insoniy sinovlar samaradorlikni ko'rsatadi, deya qo'shimcha qildi Huang [6].




## Laos “Sputnik Light” vaksinasini tasdiqladi

Laosda bir komponentli “Sputnik Light” koronavirus vaksinasini tasdiqladi. Bu haqda Rossiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi (RTIJ) matbuot xizmati xabar berdi.

RTIJ ma’lumotlariga ko‘ra, Laos Rossiya dori vositasidan foydalanadigan dunyodagi 20-davlatga aylandi [7].

“Sputnik Light” - “Sputnik V” vaksinasining birinchi komponentidir. Hozirda “Sputnik Light” 30 ga yaqin davlatda ro‘yxatdan o‘tish jarayonida.



RTIJ ta’kidlashicha, Laosda 2021-yil mart oyida ikki komponentli “Sputnik V” vakcina ham tasdiqlangan.

“Sputnik Light” va “Sputnik V” preparatlari mamlakatda favqulodda foydalanish ruxsatnomasi (EUA) ostida ro‘yxatga olingan [8].



COVID  
19

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (24.11.2021)
2. A COVID-19 peptide vaccine for the induction of SARS-CoV-2 T cell immunity // <https://www.nature.com/articles/s41586-021-04232-5> (24.11.2021)
3. Вакцина для клеточного иммунитета против COVID-19 прошла первую фазу // <https://ria.ru/20211123/vaktsina-1760323596.html> (24.11.2021)
4. Вакцина для клеточного иммунитета против COVID-19 прошла первую фазу испытаний // <https://online47.ru/2021/11/23/vaktsina-dlya-kletochnogo-immuniteta-protiv-covid-19-proshla-pervuyu-fazu-ispytaniy-142406> (24.11.2021)
5. Taiwan's nasal spray vaccine against COVID shows promise in animal trials // <https://www.taiwannews.com.tw/en/news/4276807> (24.11.2021)
6. Лаос одобрил «Спутник Лайт» // <https://www.fontanka.ru/2021/11/23/70272080/> (24.11.2021)
7. Лаос одобрил применение "Спутника Лайт" // <https://ria.ru/20211123/vaktsina-1760421034.html> (24.11.2021)





**COVID  
19**

**Coronavirus  
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021